

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI



“TASDIQLAYMAN”

**Ilmiy ishlar va innovatsiyalar
bo‘yicha prorektor, prof**

T.H. Rasulov

2024 yil

11.00.01- TABIIY GEOGRAFIYA IXTISOSLIGI BO‘YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOV LARI UCHUN MAXSUS
IXTISOSLIK FAÑLARIDAN


DASTUR VA BAHOLASH MEZONI


Buxoro-2024

Annotatsiya:

Dastur 11.00.01- tabiiy geografiya ixtisosligiga kiruvchilar uchun 70530402
- Geografiya (o'rganish ob'ektlari bo'yicha) mutaxassisligini 2023 yilda
tasdiqlangan o'quv rejasi dagi asosiy fanlar va 60530400-Geografiya ta'lim
yo'nalishi o'quv rejasi asosida tuzildi.

TUZUVCHILAR:

Ergasheva M.K.  BuxDU, Ekologiya va geografiya
kafedrası dosenti, g.f.f.d., PhD

Halimova G.S.  BuxDU, Ekologiya va geografiya
kafedrası dosenti, g.f.f.d., PhD

KIRISH

11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi – “O‘zbekiston landshaftlari va tabiiy geografiyasining mintaqaviy muammolarini o‘rganish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish”, “Landshaftlarning geokimyoviy xususiyatlarini aniqlash, landshaft-geokimyoviy jarayonlarni, arid zona elementlarining migratsiyasini o‘rganish va modellash, tuproq-geokimyoviy va tabiiy geografik xaritalarini yaratish” bilishlari lozim bo‘ladi. Buning uchun shu sohaga tegishli fanlarni, jumladan yuqorida keltirilgan ma’lumotlarni chuqur o‘zlashtirgan, ekinlarda uchraydigan zararkunanda va kasalliklarning tur tarkibi va karantin zararli organizmlarni to‘g‘ri aniqlay oladigan, samarali kurash choralarini aniq biladigan va ularni o‘z vaqtida qo‘llashni tashkil qila oladigan malakali mutaxassislar tayyorlash ta’lim tizimining negizi hisoblanadi.

Tayanch doktoranturga kiruvchilar uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko‘nikmalar, geografik, geofizik va geokimyoviy jarayonlarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarash shakllangan bo‘lishi lozim. SHuningdek, ilg‘or pedagogik texnologiyalardan foydalangan holda bilimlarni oshirish va ko‘nikmalari mavjud bo‘lishi kerak.

11.00.01 – tabiiy geografiya ixtisosligi bo‘yicha tayanch doktoranturaga kiruvchi da’vogarlar uchun 2023 yilda tasdiqlangan o‘quv rejasi dagi asosiy fanlar va 60530400-Geografiya ta’lim yo‘nalishi o‘quv rejasi bo‘yicha: “Geosistemalar nazariyasi”, “Amaliy landshaftshunoslik”, “Geoekologiya asoslari”, “landshaft planirovkasi” va “Geografiyaning asosiy muammolari” fanlaridan savollar bazasi shakllantirilgan.

Bu fanlar o‘z negizida qamrab olingan ma’lumotlar quyida batafsil keltirilgan.

Geosistemalar nazariyasi fani bo‘yicha:

Geosistemalar nazariyasi – geosistemalarni tadqiq qilishda kompleks tabiiy geografiyaning ahamiyati, geosistemalar, ularning ko‘lamlari, tarkibi, hududiy tabaqalanishi, shakllanishi va rivojlanishi, xususiyatlari va ularni kartalash haqidagi fandi. “Geosistemalar nazariyasi” fanining tadqiqot predmeti kompleks tabiiy geografiya va geosistemalarning planetar, regional va topologik ko‘lamlari, inson faoliyati va geosistema aloqadorligi hamda o‘zaro ta’sirining umumiy va regional xususiyatlaridir. magistrantlarga geosistemalar haqidagi ta’limotlarni o‘rganib, ularning ilmiy-nazariy va amaliy tomonlarini magistrantlarning faol ishtirokida ko‘rib chiqish, magistrantlarda kompleks tabiiy geografiyasi geosistemalarni tadqiq qilishdagi ahamiyati, geosistemalarni tuzilishi, tadqiqot ob’ekti va predmeti, ichki rivojlanish qonuniyatlari, o‘rta va oliy maktabda o‘qitilishi muammolari, amaliy qirralari va ahamiyatiga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat.

AMALIY LANDSHAFTSHUNOSLIK

fani bo‘yicha:

Amaliy landshaftshunoslik faning o‘rganish ob’ekti, predmeti, maqsadi va vazifalari. Geografiya fanlari tizimida tutgan o‘mi. Amaliy landshaftshunoslikning ilmiy va amaliy ahamiyati. Amaliy landshaftshunoslikning nazariy asoslari. Umumilmiy landshaftshunoslik va amaliy landshaftshunoslik. Umumilmiy landshaftshunoslik va amaliy landshaftshunoslik g‘oya va tushunchalarining shakllanishi va rivojlanishi. Geotizimlarda modda almashinishi. Geografik tizimlar va ekologik tizimlar ularning o‘zaro nisbatlari, farqlari va o‘xshashliklari. Geotizimlarni tasniflash prinsiplari. Geotizimlar evolyusiyasi va dinamikasi. Landshaftlarni xalq xo‘jaligining turli tarmoqlari nuqtai nazaridan baholash. Baholashning asosiy prinsiplari va metodlari. Landshaftlarni baholashga oid tadqiqotlar tavsifi. Geotizimlarni baholash. Landshaftlarni ekologik baholash. Landshaftlarni iqtisodiy baholash. Tabiiy sharoitni qishloq xo‘jaligi uchun baholashda landshaft xususiyatlarini inobatga olish. Landshaftlarni rekreatsiya, shaharozlik maqsadlarida baholash. Landshaftlarni prognozlash. Tabiiy geografik, iqtisodiy geografik va kompleks geografik prognozlar. Landshaftlar taraqqiyotini prognozlash uning asosiy tamoyillari. Prognozlash metodlari: ekspert-baholash, landshaft genetik qatorlari, funksional bog‘liqliklar metodi, tabiiy geografik ekstrapolyasiya metodi. Landshaftlarning rivojlanish yo‘nalishlarini aniqlash muammolari. Landshaftlarning tabiiy rivojlanishini hamda antropogen ta’sir natijasida o‘zgarishlarini o‘rganishning prinsiplari va metodlari. Amaliy landshaftshunoslik maxsus kartalarini tuzish, mayda masshtabli, o‘rta masshtabli va yirik masshtabli landshaft kartalarini tuzishning asosiy xususiyatlari va metodlari.

LANDSHAFT PLANIROVKASI

fani bo‘yicha:

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tabiat va inson o‘zaro munosabatlarining ilmiy asoslari va muammolarini har tomonlama o‘rganish va tahlil etishda, hududni to‘g‘ri tashkil etish orqali ekologik-iqtisodiy-ijtimoiy barqaror rivojlanishga erishishda geotizimlarning ekologik, resurs va barqarorlik potensialini hisobga olish imkoniyatini beruvchi landshaft planirovkasi o‘quv fani dolzarb ahamiyatga ega. Shuning uchun geografiya mutaxassisligi bo‘yicha magistrantlar tayyorlashda mazkur kursni o‘zlashtirish muhim nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi. Landshaft planirovkasi – kursning metodologiyasi, uning asosiy tushunchalari va tamoyillari, fanda qo‘llaniladigan usullar, metodlar va ularning bosqichlari, landshaft planirovkasi tadqiqotlarining asosiy yo‘nalishlarini o‘rganishdan iborat.

Mazkur fandan olishgan bilimlar esa ixtisoslik fanlaridan mashg‘ulotlarni bajarishda keng qo‘llanilib, bo‘lgusi mutaxassislarga ko‘nikma va malaka shakllanishida muhim o‘mi tugadi.

Fanni o'qitishdan maqsad – magistrantlarga landshaft planirovkasi haqidagi ta'limotlarni o'rganib, ularning ilmiy-nazariy va amaliy tomonlarini magistrantlarning faol ishtirokida ko'rib chiqish, magistrantlarda madaniy landshaftlarni tadqiq qilishdagi ahamiyati, ularni tuzilishi, tadqiqot ob'ekti va predmeti, ichki rivojlanish qonuniyatlari, oliy maktabda o'qitilishi muammolari, amaliy qirralari va ahamiyatiga doir bilim va malakalarni shakllantirishdan iborat.

- Landshaft planirovkasining madaniy landshaftlarni tadqiq qilishdagi ahamiyatini yoritib berish;

- Landshaft planirovkasining fanining mazmuni va tub mohiyatini tushintirib berish;

- Madaniy landshaftlar tuzilishi, ular haqidagi bilimlarning va ta'limotlarning rivojlanishi, o'zaro aloqadorligi muammolarini aniqlash bilimlarini mustahkamlash;

- Amaliy vazifalarni bajarishda fanning metodologik yondashuvlaridan foydalanishni o'rgatish;

- Landshaftlarni q/x, meliorativ, injenerlik, rekreatsion va boshqa tadqiqotlar nuqtai nazaridan o'rganish;

GEOKOLOGIYA ASOSLARI

fani bo'yicha:

Geokologiya va landshaft ekologiyasi fanining maqsadi va vazifalari, boshqa fanlar bilan bog'liqligi. Geokologiya va landshaft ekologiyasining rivojlanish tarixi va hozirgi holati. Geokologiyaning rivojlanishida geografiya, ekologiya, biologiya va boshqa fanlarning ahamiyati. Geokologiya va landshaft ekologiyasi atamalarining dastlab ishlatilishi va ta'rifi. Landshaft ekologiyasi. Yevropada landshaft ekologiyasi. Landshaft ekologiyasining SHimoliy Amerikada rivojlanishi. Uzbekistonda geokologik tadqiqotlar. Geokologiyaning fan sifatida shakllanishi va hozirgi xolati. Geokologiya - geotizimlar ekologiyasi to'g'risidagi fan. Geokologiya - geotizimlarni insonning yashash va xujalik faoliyati muhiti sifatida o'rganuvchi fan ekanligi. Geokologiyaning tadqiqot ob'ekti tug'risida tushuncha. Geotizim va ekotizim tushunchalari. Landshaft ekologiyasining tadqiqot ob'ekti - landshaft va uning morfologik qismlari. Landshaft atrof muhitning bir qismi sifatida. Landshaft - geotizimlarning birligi, uning tizim sifatidagi xususiyati. Jonli va jonsiz tabiat komponentlarining o'zaro munosabatlari. Landshaftda modda va energiya migratsiyasi. Landshaftlarning insonlarga ta'siri. Insonning landshaftlarga ta'siri. Geokologiyaning nazariy va metodologik asoslari. Geokologik konsepsiyalar, prinsiplar, yondashuvlar. Tabiatni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanishda ularga amal qilishning zarurligi. Geokologik tadqiqot metodologiyasi va metodlari. Dialektik materializm, koevolusion rivojlanish geokologik tadqiqotlarning metodologik asosi. Geokologik tadqiqotlarda dala-ekspeditsiya, kartografik, aerokosmik, GIS, modellash tirish metodlaridan foydalanish. Geokologik omil haqida tushuncha. Tabiiy va antropogen omillar, ularning turlari. Geokologik vaziyatni belgilovchi ko'rsatkichlar, ularni son va sifat jihatidan umumlashtirish.

Aholi soni, joylashishi va zichligining geokologik vaziyatga ta'siri. Aholi soni va uning usishi. Aholi joylashuvi va zichligi. Xo'jalik faoliyati. Aholi migratsiyasi. Tabiiy muhitga antropogen yukning ortishi. Landshaftlarning o'zgarishi. Landshaftlarning ekologik funksiyasi. Landshaftlarning funksiyasi. Ekologik funksiya. Ekologik funksiya jarayon va ko'rsatkichlari. Landshaft-ekologik tahlil. Landshaft strukturasi va uning tahlili. Ulchash natijalarini ixozlash. Tabiiy muxitning inson xo'jalik faoliyati ta'sirida ifloslanishi. Tabiiy muhitning ifloslanish turlari. Ifloslanishning tasniflanishi. Ifloslantiruvchi moddalarning tasniflanishi va umumiy ta'rifi. Me'yoriy ekologik jarayonlar. Landshaftlar ekologik funksiyasining antropogen buzilishi va uzgarishi. Antropogen omillar va jarayonlar. Moddalarning texnogen migratsiyasi va landshaftlarning uzgarishi. Antropogen ifloslanish manbalari. Ifloslantiruvchi moddalarning biotransformatsiyasi va bioakkumulyatsiyasi. Ifloslantiruvchi moddalarning insonlarga va boshqa tirik organizmlarga ta'siri. Geokologik muammolar va ularning echimi. Geokologik muammo tushunchasi. Geokologik muammolarning tasniflanishi. Global, regional va lokal geokologik muammolar. Geokologik muammolar echimining ilmiy asoslari. Geokologik baholash. Geokologik vaziyat ta'rifi. Geokologik vaziyatni baholash va tasniflash mezonlari. Landshaftlarni ekologik tahlil qilish va baholash tushunchalari. Biotoplarni baholash. Pedotoplarni baholash. Yer usti va yer osti suvlarini baxolash. Havo va iqlimiy ko'rsatkichlarni baholash. Landshaftlarga antropogen ta'sirni baholash, ekologik-xo'jalik balansi, geokologik baholash metodlari. Geokologik monitoring. Geokologik monitoring. Monitoring tizimi va uning tasniflanishi. Uzbekistonda ekologik monitoringni amalga oshirilishi. Geokologik prognozlashtirish va prognoz. Geokologik prognozlashtirishning ob'ekti, maqsadi va usullari. Ekologik vaziyatlarning prognozli xususiyatlari. Prognozlashtirish mexanizmi va prognoz natijalari. Uzbekistonda ekologik vaziyatlarni o'zgarishining prognozi. Landshaftlardagi ekologik jarayonlarni modellash tirish. Model. Modellash tirish. Landshaft ekologik modellash tirish mazmuni. Modellash tirish bosqichlari va turlari. Geokologik kartalashtirish. Geokologik kartalashtirish mazmuni, turlari va tasniflanishi. Geokologik kartalarni tuzishning metodologik asoslari. Amaliy ekologik kartalashtirish. Ekologik monitoring natijalari asosida kartalashtirish. Geokologik kartalashtirish usullari. Atrof muxitni muxofaza qilish va tabiatdan okilona foydalanishning geokologik asoslari. Tabiatdan foydalanishda tabiat konunlari va konuniyatlarini e'tiborga olish. Tabiatdan foydalanishning geokologik prinsiplari. Atrof muxitni muxofaza qilish tadbirlarini barcha joylarda amalga oshirish prinsipi. Atrof muxitni muxofaza kilittd tadbirlari profilaktikasi. Tabiiy resurslardan foydalanishning ustuvor yunalishlari. Geokologiyada fan va amaliyot. Tabiiy-texnik geotizimlar - hududiy loyixalash va rejalashtirishning asosiy ob'ekti sifatida. Loyihalashning geokologik asoslari. Tabiiy - texnik geotizimlarni loyixalashda geokologik prinsiplarni qo'llanilishi.

GEOGRAFIYANING ASOSIY MUAMMOLARI

fani bo'yicha:

“Geografiyaning asosiy muammolari” fani, predmeti, tadqiqot ob'ekti. Fanning maqsadi va vazifalari, qisqacha rivojlanish tarixi. Tabiiy geografiyadagi asosiy g'oya va tushunchalarning shakllanish va rivojlanish tarixidan. Qadimgi (antik) davrlardagi yunon olimlari Gekatiy, Gerodot, Aristotel, Eratosfen, Gipparx, Posidoniy, Strabon, Ptolemeylarning geografik tasavvurlari. O'rta asrlardagi sharq uyg'onish davri geografiyasi. O'rta Osiyolik allomalar Muhammad Xorazmiy, Jayhoni, Balxiy, Abu Abdulla Xorazmiy, Beruniy, Mahmud Qoshg'ariy, Zamaxshariy, Hofizi Abru, G'iyosiddin Naqqosh, Zahiriddin Bobur va boshqalarning geografik merosi. Buyuk geografik kashfiyotlar davri va evropaliklarning tasviriy geografiyasi. V.V. Dokuchaev, A.N. Krasnov, G.T. Tanfilev, L.S. Berg, G.F. Morozov, A.A. Grigorevlarining yangi ilmiy geografiyaning shakllanishidagi roli. XX asrning ikkinchi yarmida kompleks tabiiy geografiya va landshaftshunoslik g'oyalari rivojlanishi. O'zbekistonda bajarilgan tabiiy geografik izlanishlarning tavsifi. Tabiiy geografiyaning fanlar tizimidagi o'rni va qismlari. Tabiiy geografiyaning obekti, predmeti va vazifalari. Geografik qobiq, geografik muhit, tabiiy geografik kompleks, landshaft, geografik tizim, tushunchalari va ta'limotlarining shakllanishi. Geotizimlarning uch darajasi: planetar, regional, va topologik darajalari. Tabiiy geografik komplekslarning ko'lamlari, katta-kichikligi va tabiiy geografiyaning qismlarga bo'linishi. Geografik qobiqning chegaralari, va tarkibiy tuzilishi, uning geosferalari va komponentlari. Geografik qobiqning o'ziga xos bo'lgan eng muhim xususiyatlari. Uning tarixan shakllangan, uzluksiz rivojlanib turadigan, o'ziga xos va murakkab moddiy tizim ekanligi. Geografik qobiqning tashqi olam bilan aloqadorligi. Unda organik hayotning mavjudligi. Geografik qobiqning mavjudligida tirik moddaning ahamiyati. Tabiiy geografik komplekslar va ularning umumiy xususiyatlari. Tabiiy geografik rayonlashtirish regional tabiiy geografiyaning metodologik masalalaridan biri ekanligi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning xillari, tamoyillari va metodlari. Genetik birliklik, komplekslilik, hududiy umumiylik, va nisbatan bir xillik tamoyillari. Xususiy rayonlashtirish ma'lumotlarini tahlili qilish asosida tabiiy geografik rayonlashtirish metodi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning etakchi (bosh) omil metodi. Tabiiy geografik rayonlashtirishning taksonomik birliklar tizimi. Taksonomik birliklarning umumiy ta'rifi. O'rta Osiyo va O'zbekistonning tabiiy geografik rayonlashtirishlar tajribalaridan R.I. Abolin, L.S. Berg, E.P. Korovin, A.N.Rozanov, V.M.CHetirkin, E.M.Murzaev, L.N.Babushkin va N.A.Kogaylarning tabiiy geografik rayonlashtirish ishlarida ko'tarilgan muammoli masalalar. Qishloq ho'jaligi va boshqa soha maqsadlarida bajariladigan tabiiy geografik rayonlashtirish masalalari. Landshaftshunoslik yoki kichik hududlar tabiiy geografiyasining muammoli masalalari. Landshaftning tarkibiy tuzilishi va morfologiyasi. Landshaft hosil qiluvchi omillar. Landshaft va ekosistema, landshaftshunoslik va ekologiyadagi o'xshashlik va farqlar. Landshaft ekologiyasi yoki geoekologiya tushunchasi.

Landshaftlarning maxsus faoliyati. Landshaftlarni tasniflash masalalari. Landshaftshunoslikning strukturaviy-genetik, funksional-dinamik, antropogen, ekologik, estetik ilmiy yo'nalishlari.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Гвоздецкий Н.А. Основные проблемы физической географии. М., Высшая школа. 1979.
2. Забелин И.М. Физическая география в современном естествознании. М., Просвещение. 1979.
3. Зокиров Ш.С. Кичик худудлар табиий географияси. Т., Университет. 1999.
4. Зокиров Ш. Антропоген va amaliy landshaftshunoslik. Toshkent, 1998.
5. Мильков Ф.Н. Физическая география: современное состояние, закономерности, проблемы. Воронеж. 1981.
6. Юренков Г.И. Основные проблемы физической географии и ландшафтоведения. М., 1982.
7. Трофимов А.М., Шарыгин М.Д. Общая география: вопросы теории и методологии. – Пермь, 2007.
8. Rafikov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya. T.: "Adib", 2014.
9. Турсунов Х.Т. Экология va barqaror rivojlanish. T.: 2009.
10. G'ulomov P.N. Inson va tabiat. O'quv qo'llanma. - T.: "O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2009.
11. Hugget R. Geocology.: London and New York. Routledge. 1995.
12. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. -М.: 1991.
13. Зокиров Ш. С., Toshov X.R. Landshaftshunoslik. -T.: "Dizayn-press", 2013.
14. Rafikov A.A., Sharipov Sh.M. Geoekologiya. T.: "Adib", 2014.
15. Исаченко А.Г. Ландшафтоведение и физико-географическое районирование. –М.: 1991.
16. Звонкова Т.В. Географическое прогнозирование. М.: "Высшая школа". 1987.
17. Исаченко А.Г. Оптимизация природной среды. М.: "Мысль".1980. -264 с.
18. Николаев В.А. Ландшафты азиатских степей. -М.: 1999.
19. Сочава В.Б. Введение в учение о геосистемах. –Новосибирск.: 1978.
20. Хасанов И.А. Оценка природных территориальных комплексов Каршинской степи для оросительной мелиорации. Т.: «Фан» 1981.

**TAYANCH DOKTORANTURA (PHD)GA KIRUVCHILAR UCHUN
SINOV IMTIHONINING JAVOBLARINI BAHOLASH UMUMIY
MEZONLARI**

Ball	Bilim darajasi
1	2
86-100	Javoblarida fanning mavzulari vasavollari bo'yicha ijodiy fikrlash mavjud bo'lsa, mamlakatimizda modernizatsiyalash jarayonlarini jadallashirish, demokratik islohatlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasidan kelib chiqqan vazifalarni bajarish yo'llari o'z aksini topgan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha tavsiyalar bergan bo'lsa, savol bo'yicha javobda mustaqil mushohada yuritilgan bo'lsa, tavsiyalarni amaliyotga qo'llash tartiblari ko'rsatilgan bo'lsa
71-85	O'z javobida qo'yilgan savol bo'yicha mustaqil mushohada yuritgan bo'lsa, ularning mohiyatini deyarli to'liq ochib bergan bo'lsa, qo'yilgan muammoni yechish bo'yicha o'z tavsiyalarini bergan bo'lsa
55-70	Javobida fan bo'yicha variantga kiritilgan savollarga qisman javob bergan bo'lsa, asosiy tushunchalarga bergan izohi kam bo'lsada, mavjud bo'lsa
0-54	Javobida qo'yilgan savol mazmuni umuman yoritilmagan bo'lsa, izohlarmavjud bo'lmasa, ya'ni talabgor javobida qo'yilgan savollar bo'yicha umuman tasavvurga ega emasligi aniq bo'lsa

11.00.01 – Tabiiy geografiya ixtisosligi bo'yicha baholash mezonlari

№	Umumiy ball	Tayanch doktoantura (PhD)ga kiruvchining bilim darajasi	Xususiy ball
Savol nazariy bo'lsa			
1	18-28	Qo'yilgan savollar mazmunan aniq yoritilib, demokratik islohotlar va jarayonlarning mazmunan mohiyati to'liq ochib berilgan; O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlar tahlili va ularning amaliy samaralari, natijalari va hayotga tadbiiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr mavjudligi; Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan.	18-28
2	13-19	Materialni chuqur tushunadi, savolga to'liq javob bergan, lekin ayrim noaniqliklarga yo'l qo'yagan,	6-8

		faktlarga to'g'ri baho bera olgan. mustaqil fikrlash va xulosalarni asoslay olish qobiliyatiga ega. javobda mantiqiy ketma-ketlikka amal qiladi. masalani hal qilishga umuman ijodiy yondasha olgan, Javobda doktoantura (PhD)ga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Ijodiy yondoshuv mavjud; Muammoni tahlil qilish qobiliyatiga ega.	5-6 2-4 0-1
			13-19
3	4-8	Savolga javobda masalaning mohiyatini tushunilgan, ammo mazmun va natijalar yuzaki yoritilgan; Mushohada bayonida fikr tarqoqligi kuzatiladi; Javoblarda mantiqiylik tamoyili buzilgan; Tasavvurga ega, lekin tahlil yo'q.	
			4-8
4	0-3	Savol bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob yozilmagan; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan	
Savol amaliy (Geografik jarayonlar yuzasidan hisob kitobli masala va ularni yechishi yoki laboratoriya ishi) bo'lsa			
1	14-18	Masalani yechishda ilmiy - ijodiy yondoshgan; Amaliy topshiriq tahlili va ularning amaliyotga tadbiiq etilishi bo'yicha mustaqil, ijodiy fikr va mulohazalar mavjud, amaliy topshiriq to'liq bajarilgan; Javoblarda mantiqiy yaxlitlikka erishilgan va umumiy xulosalar chiqarish qobiliyatiga ega; Imlo va stilistik xatolarga yo'l qo'yilmagan;	14-18
2	9-13	Javob to'g'ri yozilgan, ammo noaniqliklar, hisob-kitoblarda chalkashliklarga yo'l qo'yilgan, amaliy topshiriq to'liq bajarilmagan lekin yechimiga ilmiy-ijodiy yondashilgan; Javobda PhD doktoanturaga kiruvchining mustaqil mushohada yuritish qobiliyati seziladi; Ijodiy yondoshuv mavjud; Amaliy topshiriqni tahlil qilish qobiliyatiga ega;	9-13

3	0-3	Masalaning qo'yilishi bo'yicha aniq tasavvurga ega emas; Umuman javob yozilmagan; amaliy topshiriqning yechimi yo'q; Noto'g'ri javob va ma'lumot berilgan; O'quv adabiyotidan aynan so'zma-so'z ko'chirilgan.	
			0-3

Kafedra muduri  Y.D.Xolov